

SHUKUROV Yorqin

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
www.yorqin79@mail.ru*

CHET TILLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR: RAQAMLI TA'LIM MUHITI, METODLAR VA VOSITALAR INTEGRATSIYASI

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ, МЕТОДОВ И СРЕДСТВ

INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR IMPROVING FOREIGN LANGUAGE TEACHING EFFICIENCY: INTEGRATING THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT, METHODS, AND RESOURCES

Annotatsiya: Mazkur maqola chet tillarini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlariga bag'ishlangan. Unda raqamli ta'lim muhitini yaratishda interaktiv o'qitish metodlari, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati tahlil etilgan. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar orqali talabalarda kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash va chet tillarga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Maqola chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va yechimlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim muhiti, chet tillarini o'qitish, metodlar integratsiyasi, multimedia vositalari, samaradorlik, AKT.

Аннотация: Настоящая статья посвящена роли инновационных технологий в повышении

эффективности преподавания иностранных языков и механизмам их интеграции в образовательный процесс. В ней проанализировано теоретическое и практическое значение интеграции интерактивных методов обучения, мультимедийных средств и информационно-коммуникационных технологий для создания цифровой образовательной среды. В исследовании освещены педагогические условия развития у студентов коммуникативной компетенции, критического мышления и мотивации к изучению иностранных языков посредством современных технологий. Статья содержит практические рекомендации и решения, направленные на совершенствование процесса обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: инновационные технологии, цифровая образовательная среда, преподавание иностранных языков, интеграция методов, мультимедийные средства, эффективность, ИКТ.

Annotation: This article is dedicated to the role of innovative technologies in enhancing the effectiveness of foreign language teaching and the mechanisms for their integration into the educational process. It analyzes the theoretical and practical significance of integrating interactive teaching methods, multimedia tools, and information and communication technologies in creating a digital educational environment. The research highlights the pedagogical conditions for developing students' communicative competence, critical thinking, and motivation for foreign languages through modern technologies. The article includes practical recommendations and solutions aimed at improving the foreign language teaching process.

Keywords: innovative technologies, digital educational environment, foreign language teaching, integration of methods, multimedia tools, effectiveness, ICT.

KIRISH

Chet tillarni o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining fundamental komponentlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi sharoitida, kommunikativ kompetensiyaga ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, chet tillarini samarali o'qitish usullari, ayniqsa, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganish va ta'lim amaliyotiga joriy etish masalasi ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida chet tillarini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish

masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: **"Bugun yoshlarimizni o'qitishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish... – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida bu talab yanada kuchayadi"** [1:4].

Pedagogik texnologiyalarning jadal rivojlantirishi va raqamli ta'lim muhitining shakllanishi o'qitish jarayonini tubdan o'zgartirish imkonini berdi. Innovatsion vositalarning tatbiq etilishi o'qituvchiga ta'lim jarayonini yanada aniq yo'naltirish, talabalarning mustaqil o'quv faoliyati samaradorligini oshirish va ularning chet tillarga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, raqamli vositalar, metodlar va pedagogik yondashuvlar integratsiyasi orqali o'qitish samaradorligini kafolatlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zaruriyati saqlanib qolmoqda. Aynan shu holat mazkur ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy chet tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini an'anaviy metodikalardan tubdan farq qiluvchi sifat bosqichiga olib chiqadi. Ye. S. Polat kabi olimlarning fikriga ko'ra, AKT vositalari yordamida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning yuqori imkoniyatlari mavjud.

Raqamli Ta'lim Muhiti (RTM) zamonaviy chet tillarini o'qitish metodikasining markaziy qismi bo'lib, uni shunchaki texnik vositalar to'plami (hardware) sifatida talqin qilish yetarli emas. RTM, pedagogik nuqtai nazardan, talabaning individual ehtiyojlariga moslashuvchanlik (adaptivlik) va o'rganish avtonomiyasini ta'minlaydigan tizimli pedagogik makondir. Xususan, bu muhit o'quvchi markazlashtirilgan yondashuv (student-centered approach) tamoyilini to'liq amalga oshirishga xizmat qiladi.

RTM ning muhim funksiyalaridan biri — bu haqiqiylik (authenticity) ni yaratishdir. Ya'ni, u talabalarga internet-resurslar, ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Twitter, YouTube), xorijiy OAV va akademik ma'lumotlar bazalari orqali til o'rganilayotgan mamlakatning real madaniy va til muhitiga "immersive" (chuqur kirib boruvchi) tarzda kirish imkonini beradi.

Bu borada bir necha misollarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, LMS (Learning Management System) platformalari (masalan, Moodle yoki Canvas) ichiga o'rnatilgan Adaptiv Ta'lim tizimlari talabaning har bir topshiriqdagi xato darajasi va o'zlashtirish tezligiga qarab keyingi materialning murakkabligini avtomatik ravishda o'zgartiradi. Bu individual o'rganish trayektoriyasini yaratadi va, Krashenning Input Hypothesis nazariyasiga muvofiq, o'quvchiga uning hozirgi darajasidan bir oz yuqori (I+1) darajadagi tushunarli materiallarni taqdim etadi. Talabalar turli MOOCs (Massive Open Online Courses) yoki duolingo kabi Gamifikatsiya asosidagi ilovalardan foydalangan holda darsdan tashqari vaqtda o'z qiziqishlari asosida tilni mustaqil o'rganishlari mumkin. Bu o'z-o'zini boshqarish (self-regulation) ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan Virtual Excursions (Virtual sayohatlar), real xorijiy podkastlarni tahlil qilish yoki o'qitilayotgan tilda suhbatdosh topib (masalan, Tandem ilovasi orqali) kommunikatsiya qilish kommunikativ to'siqni bartaraf etishga yordam beradi va tilni amaliyotda qo'llash ehtimolini keskin oshiradi. Birlashtirilgan ta'lim — bu innovatsion texnologiyalarni amaliyotga chuqur kiritishning eng muhim shaklidir. Ayniqsa, "Flipped Classroom" (Aylanma sinf) metodi nazariy materialni uyda raqamli vositalar orqali o'rganishni, dars vaqtida esa faqat amaliy topshiriqlar, munozaralar va Loyihaviy ta'lim (PBL) ni bajarishga imkon beradi. Bu o'qituvchi vaqtini tilni amaliy qo'llashga maksimal sarflashga yo'naltiradi.

Bir so'z bilan aytganda, RTM zamonaviy chet tili o'qitishda nafaqat vosita, balki chuqur o'zlashtirish va motivatsiyani ta'minlovchi murakkab pedagogik tizimdir. Raqamli ta'lim muhitining (RTM) yuqorida sanab o'tilgan imkoniyatlari bevosita chet tillarini o'qitishning pedagogik natijalariga ta'sir qiladi.

Birinchidan, RTM kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan turli xil til faoliyat turlarini (o'qish, yozish, tinglash va gapirish) integratsiyalashga yordam beradi. Masalan, talaba ijtimoiy platformada (RTM vositasi) xorijiy OAV xabarini o'qib (o'qish), u haqida yozma fikr bildirishi (yozish) va video konferensiya orqali ushbu mavzuni guruhda muhokama qilishi (gapirish) mumkin. Bu, Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga muvofiq, tilni ijtimoiy muloqot orqali chuqurroq o'zlashtirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, RTM talabalarining motivatsiyasini va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Multimedia vositalari, gamifikatsiya elementlari (masalan, ball to'plash, reytinglar) va interaktiv topshiriqlardan foydalanish an'anaviy darsliklarga qaraganda ancha ta'sirchan va qiziqarli hisoblanadi. Bu holat, tilni o'rganishda muhim hisoblangan, affektiv filtr (hissiy to'siq) darajasini pasaytiradi.

Uchinchidan, RTM chet tilidagi axborotni doimiy ravishda yangilab turish imkoniyatini beradi, bu esa o'qitilayotgan tilning real hayotdagi, dinamik holatiga mos kelishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, RTM o'qituvchiga har bir talabaning til ko'nikmalaridagi bo'shliqlarni aniq diagnostika qilish va tezkor qayta aloqa (feedback) berish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o'quv jarayonining umumiy sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Chet tillarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi so'nggi yillarda mahalliy pedagogika va metodika sohalarida chuqur ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib kelmoqda. Tilshunos olim Abduazizov I. tomonidan olib borilgan fundamental izlanishlar chet tillarini o'qitish metodikasida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning nazariy-konseptual asoslarini belgilab bergan muhim ish hisoblanadi. Uning tadqiqotining markaziy qismi innovatsion texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilishning zarurligini ilmiy asoslashga qaratilgan. Olim texnologiyalarni shunchaki yordamchi vosita emas, balki yangi pedagogik paradigmaning ajralmas qismi sifatida ko'radi [3:28]. Uning nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, texnologiya faqat didaktik maqsadga erishish vositasi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Ya'ni, texnologiya tilni o'rganish maqsadiga bo'ysunishi, uni almashtirmasligi lozim. Innovatsiyalarni tilning barcha to'rt turi (o'qish, yozish, tinglash, gapirish)ni bir vaqtda rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ yondashuv bilan uyg'unlashtirish muhimligini asoslaydi. Olim innovatsion texnologiyalarni o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytirishning asosiy omili sifatida baholaydi [3:33].

Bu xulosa, konstruktivistik ta'lim nazariyasiga (Vigotskiy) mos keladi, unga ko'ra bilim ijtimoiy muloqot va hamkorlik orqali yaratiladi. Texnologiyalar bu muloqotni quyidagi shakllarda takomillashtiradi:

- sinxron va asinxron Interaktivlik: Sinxron (real vaqt rejimida, masalan, videokonferensiyalar) va asinxron (turli vaqtlarda, masalan, forumlar yoki LMS orqali fikr almashish) muloqotni ta'minlash orqali o'rganish jarayonining uzluksizligini ta'minlash.

- guruh dinamikasi: onlayn hamkorlik platformalari (masalan, Google Docs, Miro) orqali talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik (peer collaboration) imkoniyatini oshiradi.

Abduazizov I. innovatsion texnologiyalarni ta'lim samaradorligini oshirishning hal qiluvchi omili sifatida belgilaydi. Bu samaradorlik quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Motivatsiyaning orttirilishi: raqamli vositalar, ayniqsa gamifikatsiya elementlari, talabalarining darsga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, bu esa o'z navbatida bilimlarni o'zlashtirish tezligi va chuqurligini oshiradi.

2. Individualizatsiya: texnologiyalar yordamida o'qituvchi har bir talabaning o'zlashtirish sur'ati, qiziqishi va bilim darajasiga mos keladigan materiallar va topshiriqlarni taqdim eta oladi. Bu adaptiv ta'lim tushunchasining amaliyotdagi ko'rinishidir.

3. Qayta aloqa sifati: avtomatik tekshiruv va baholash tizimlari o'qituvchiga tezkor, aniq va individual qayta aloqa (feedback) berish imkonini yaratadi, bu esa xatolarni o'z vaqtida tuzatishga sharoit yaratadi.

Abduazizov I.ning bu xulosalari zamonaviy metodikada faqat texnik jihozlashning emas, balki pedagogik maqsadga qaratilgan innovatsion vositalarning tizimli integratsiyasi orqali chet tilidagi kommunikativlik va ta'lim sifatini oshirish mumkinligini ilmiy asoslaydi [3:69].

Mashhur olim Mahmudov T.ning ilmiy faoliyati bevosita innovatsion texnologiyalarning vositalar bazasini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, u aynan multimedia vositalari, virtual platformalar va telekommunikatsion texnologiyalarni chet tilini egallashning eng samarali vositalari deb hisoblaydi [6:39]. Olimning xulosalari asosan materiallarning vizualizatsiyasi va haqiqiylik (authenticity) tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan. Olim multimedia (audio, video, matn, animatsiya) vositalarining kompleks qo'llanilishi talabaning idrok etish kanallarining barchasini faollashtirishini ta'kidlaydi. Bu esa bilimlarni eslab qolish samaradorligini (retention rate) oshirishga

xizmat qiladi. Virtual platformalarni (masalan, VLE – Virtual Learning Environment) til o'rganishning samarali vositasi deb baholash, aynan raqamli ta'lim muhiti (RTM) konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish zarurligini anglatadi. Bu platformalar talabaga tilni xato qilishdan qo'rqmasdan, o'z tezligida sinab ko'rish va xato orqali o'rganish (learning by errors) imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiyalarni (onlayn-aloqa, messenjerlar) til o'rganishga yo'naltirish muloqotni real hayot sharoitlariga yaqinlashtiradi, bu esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun muhimdir.

Qodirov U.ning tadqiqotlari esa metodikalar va texnologiyalarning uyg'unligi (sinergiyasi) masalasiga e'tibor qaratadi. Olimning asosiy xulosasi dars jarayonida AKT vositalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil o'rganish avtonomiyasini ta'minlash zarurligidir. U shunchaki texnologiyani qo'llash emas, balki uni mavjud va innovatsion pedagogik metodikalar bilan strategik bog'lash muhimligini asoslaydi. Uning fikricha, texnologiya tilni o'qitishning pedagogik maqsadiga xizmat qilishi lozim, aks holda texnologiya o'qituvchi ishini yengillashtiruvchi vosita bo'lib qoladi, ta'lim sifatini oshirmaydi [7:63]. Talabalarning mustaqil o'rganish avtonomiyasini ta'minlashda AKT vositalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki LMS platformalari va onlayn resurslar talabalarga o'z-o'zini boshqarish (self-regulation), o'z-o'zini baholash va o'rganish rejasini individual ravishda belgilash imkonini beradi. Bu Talabaga yo'naltirilgan ta'lim (Learner-Centered Education) tamoyilini amaliyotda to'liq qo'llashga zamin yaratadi.

Mahmudov T. va Qodirov U.ning tadqiqotlari chet tillarini o'qitish samaradorligini oshirish uchun raqamli ta'lim muhitini yaratishning texnologik bazasini shakllantirishini, uyg'un metodik yondashuv esa talabalarning avtonomiyasi va mustaqil ishlash malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini belgilab berishini ko'rsatadi, metodlar, vositalar va raqamli muhitning integratsiyasi zarurligini ilmiy asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarning chet tillarni o'qitishda qo'llanilishi o'quvchilarning til o'rganish jarayonini samarali va mazmunli tashkil etishga keng imkoniyat yaratadi. O'qituvchilar innovatsion texnologiyalarni

o'zlashtirgan holda, talabalar ehtiyojlari va individual o'zlashtirish darajasini inobatga olgan holda, ta'lim mazmunini moslashtirishlari zarur. Xususan, ta'lim jarayonida multimedia resurslari, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish chet tillarni o'rgatishda ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda pedagog va talaba o'rtasidagi faol hamkorlik muhitini yaratish o'quv moti vatsiyasini kuchaytirish, mustaqil fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa chet tillarni o'rganishda chuqur va barqaror bilimlar shakllanishini ta'minlaydi.

Demak, chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat bilimlarni oshirish, balki o'quvchilarning ijodiy va muloqotga doir qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojiga bag'ishlangan yig'ilish bayonnomasi // <https://president.uz/oz/lists/view/1414>. Murojaat sanasi: 15.05.2026.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // https://www.president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144. Murojaat sanasi: 15.05.2026.
3. Abduazizov I. Chet tillar o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2017.
4. Ibragimov X. Tili va adabiyotini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
5. Karimova S. Chet tillar o'qitishda interaktiv metodikalardan foydalanish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
6. Mahmudov T. Chet tillar o'qitishda zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Qodirov U. O'qitishda zamonaviy metodikalar va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
8. Usmonov B. Chet tillarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
9. Sharipova L. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni chet tillar o'qitishda qo'llash. – Toshkent: Toshkent davlat universiteti, 2019.